
O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining nomlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritildi

Prezident tomonidan imzolangan Qonun bilan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining nomlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga va boshqa qonunlarga O‘zbekiston Respublikasining Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining hamda Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining, O‘zbekiston Respublikasining Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyaning, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligining nomlarini va vakolatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritildi.

Ushbu Qonun **agrar** hamda **mudofaa sanoati** sohalaridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuxrat Mirzakirov

Jinoyat ishlari bo‘yicha O‘zbekiston tuman sudining raisi

2024-02-21 09:42:41